



O'QUVCHINI MUSTAQIL FIKRLASHGA YO'NALTIRISHDA
INTEGRATSIYALASHGAN TA'LIMNING ROLI

Mahmudova Charos Baxtiyor qizi

ShahDPI boshlang'ich ta'lim

yo'nalishi 4-kurs talabasi

E-mail : charosmahmudova8@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich ta'limda integratsiyalashgan ta'limning ahamiyati, o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatishning samarali usullari haqida batafsil yoritilgan. Integratsiyalashgan ta'limning o'quvchilar ta'limidagi o'rni, darslarni qiziqarli o'tishida muhim bo'lgan texnologiyalar haqida ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: integratsiya, ta'lim samaradorligi, mustaqil fikrlash, o'yin texnologiyalari, interfaol metodlar.

Аннотация: в этой статье важность интегрированного образования в начальном образовании, важность обучения студентов в образовательных методах независимого мышления это информация о образовании студентов и интересных технологиях.

Ключевые слова: интеграция, эффективность, независимое мышление, технологии воспроизведения, интерактивные методы.

Abstract: In this article, the importance of integrated education in primary education, the effective methods of teaching students to independence thingik will be provided with the place in the training of students and the interesting technologies.

Keywords: integration, education efficiency, independent thinking ,play technology, interactive methods.

Kirish

XXI asr globallashuv, axborot -kommunikatsiya va ilg'or pedagogik texnologiyalar hamda barcha sohalarda raqobat asri hisoblanadi. XXI asrdagi shiddatli ijtimoiy -iqtisodiy, fan-texnika taraqqiyoti ta'lim tizimini shaklan va mazmunan modernizatsiya qilishni taqazo etdi. Ta'lim tarbiya jarayoni samaradorligini oshirishning muhim omili sifatida zamonaviy pedagogik hamda axborot -kommunikatsiya texnologiyalaridan unumli foydalanishga ehtiyoj paydo bo'ldi. Bugungi kunda ta'lim tizimida ko'plab yangicha ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanilyapti. Mavzularni o'quvchiga qiziqarli va sodda usulda yetkazib berish usullaridan biri bu -integratsiya jarayonidir. Integratsiya (lotincha



„integration“-„tiklash“, „to‘ldirish“, „integr“-„butun“so‘zidan)-bu alohida -alohida ajratilgan qismlarning birlashmasini nazarda tutuvchi nazariy tushunchadir.U har xil usullar ,uslublar,fanlararo integratsiya obyektlari asosida tuzilgan.Endigina maktabga qadam qo‘ygan boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga fanlarni o‘zaro bog‘lab va farqli jihatdan asoslab o‘rgatish bir muncha qiziq va o‘quvchilarni diqqatini, e‘tiborini tortadigan jarayon bo‘lib xizmat qiladi.Integratsion kursning maqsad va vazifalari maktab tabiiy -ilmiy ta‘lim tizimida tavsiflanadi.Bilimning integratsiyalashgan (ko‘rgazmali)tarmog‘ida integratsiyalashishning usul va vositalari bilan tavsiflanadi.Har bir o‘quv predmetini o‘qiyotgan paytda o‘quvchilarga to‘g‘ri keladigan psixik qo‘zg‘alish hosil qilishi,bu materiallarni o‘zlashtirishiga katta yordam beradi,uni tez yodda saqlashga, emotsional anglashga,fikrlash qobiliyatini o‘sishi ,nutq va tasavvurning rivojlanishiga olib keladi.Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga fikrlash qobiliyatining har xil turlarini shakllantirish integratsiyaning negizi hisoblanadi.Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda sinf rahbarining o‘rni beqiyosdir.Darsda o‘tiladigan har bir mavzudagi savol va topshiriqlarga muammo tariqasida noodatiy yondashish.Dars yakunida o‘quvchilarda paydo bo‘ladigan turli savollarga o‘quvchilar ishtirokidan kelib chiqqan holda javob topish.O‘quvchilar fikr va xulosalarni diqqat bilan tinglash orqali o‘qituvchi, o‘quvchilarda fikrlash qobiliyatini shakllanishiga muvaffaq bo‘ladi.Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga dastlabki paytdanoq erkin fikrlashga o‘rgatilsa,keyinchalik kreativ fikrlash qobiliyatlari ham asta-sekin rivojlanib boshlaydi.Har qanday vaziyatda ham boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi o‘quvchilarning fikrlarini tinglay bilishi,ularni inobatga olishi zarur.Hozirgi vaqtda ta‘lim jarayonida o‘qitishning zamonaviy metodlari keng qo‘llanilmoqda .O‘qitishning zamonaviy metodlarini qo‘llash o‘qitiah jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi.Ta'lim metodlarini tanlashda har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq sanaladi.Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari darsliklaridagi mavzularni boshqa fanlar bilan integratsiya qilib o‘tkazish juda yaxshi natija beradi.2-sinf o‘qish savodxonligi darsligidagi „ Do‘stlikning xosiyati " nomli rivoyat berilgan .Bu rivoyatda do‘stlikning xosiyati haqida,do‘st va dushmanning farqi haqida,insonning do‘sti ko‘p bo‘lishining foydalari haqida ma‘lumot berilgan.Rivoyat so‘nggida matn yuzasidan turli xil savol va topshiriqlar berilgan .Bu orqali o‘quvchilarning mustaqil fikrlari tinglanib,ularning dunyoqarashi orttirishiga yordam beradi.Bundan tashqari darslikda „Skveyn ", „So‘z top", „So‘zdan so‘z", „Baliq skeleti" kabi ta‘limiy o‘yinlar berilgan .



„So‘z top“ o‘yinida biror bir berilgan matn ichidan so‘z tanlab olinib,shu so‘zga o‘xshash paronim so‘zlar topiladi.Masalan: Do‘st - rost,ost,go‘sh,t,mast,sust,qasd,molparast .

„So‘zdan so‘z“ta‘limiy o‘yinida esa o‘qituvchi tomonidan bir so‘z aytiladi.O‘quvchilar esa bu so‘zning harflar o‘rnini o‘zgartirgan holda boshqa bir yangi so‘z hosil qilishadi .Masalan: O‘zbekiston -nok,o‘zbek,kon,zot,bo‘z, bo‘ston,tekis h.k.

„Baliq skeleti "texnologiyasida esa berilgan matndagi qahramonlarning ijobiy va salbiy tomonlari belgilanadi . Xalqaro baholash dasturlaridan PIRLS tadqiqotida ham o‘quvchilar mustaqil va kreativ fikrlashlariga qaratilgan.Ushbu tadqiqot har besh yilda bir marotaba o‘tkaziladi .U turli mamlakatlarda boshlang‘ich sinfda tahsil oluvchi o‘quvchi yoshlarning matnni o‘qib tushunish darajalari sifatini baholab beruvchi xalqaro baholash tizimidir.Ta'limni integratsiyalashning asosiy maqsadi boshlang‘ich maktabdayoq tabiat va jamiyat haqidagi yaxshi tasavvur asoslarini qo‘yishi va ularning rivojlanishi qonunlariga o‘z munosabatini shakllantirishdir.

Xulosa qilib aytganda, o‘quvchilarning mustaqil fikrlashlari uchun integratsiyalashgan ta‘limning o‘rni muhim.O‘qituvchi pedagogik faoliyati jarayonida fanlarni bir -biri bilan bog‘lab o‘tishi lozim.Dars davomida o‘quvchilardan she‘rlar,maqollar ,tez aytishlar so‘ralsa,ularning nutqi ravon bo‘ladi.Har bir mavzu yuzasidan o‘z fikrlariga ega bo‘ladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.A.Musurmanova, N.J.Isaqulova, M.T.Jumaniyozova , A.Sh.Jumaev „Umumiy pedagogika"(2-qism) o‘quv qo‘llanma ,Toshkent „O‘ZKITOBSAVDONASHRIYOTI" 2020

2.B.X.Xodjayev „Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti"darslik .-T .:„Sano-standart "nashriyoti,2017

3.R.Mavlonova , O.To‘rayeva , K.Xoliqberdiyev „ Pedagogika"darslik.-T.:„O‘qituvchi"2001

4.Adizov B.R.,„Boshlang‘ich ta‘limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari":-Buxoro ,2002

5.Safin D.V. ,Muslima R.G. Ta'lim berish va o‘qishning interfaol usullari.O‘quv qo‘llanma .-T.2007.

6.Farberman B ., Ilg‘or pedagogik texnologiyalar ".-Toshkent:„Fan",2000.

7.I.Azimova, K . Mavlonova „Ona tili va o‘qish savodxonligi "darslik ,2021